

## **Toshkent arxitektura qurulish universiteti davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish loyihasi yuzasidan jamoatchilik muhokamasi e'loni**

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektorga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zero, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ba'zi xizmatlarning xususiy sektorga o'tkazilishi nafaqat mazkur sohada ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshishini, balki budjet mab'lag'larining samarali sarflanishini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 563-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali barpo etish belgilangan.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.2024 yildagi **"Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 720-son qarori bilan tasdiqlangan **"Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"**gi nizom 11-bandida aholining, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilarning, ulardan foydalanuvchilarning manfaatlarini inobatga olish maqsadida vakolatli davlat organining talabiga binoan DXSh loyihasi jamoatchilik muhokamalari bilan birga tayyorlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Toshkent arxitektura qurilish universiteti hududida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi barpo etish loyihasi (*quyidagi ilova qilingan jadvalga qarang*) ishlab chiqilayotganligi ma'lum qilinadi.

Loyiha doirasida tadbirkorlik sub'ekti va Davlat budjeti mablag'lari hisobidan **1 440 o'rinli** talabalar turar joyi quriladi, Bunda, xususiy sherikka talabalar turar joylarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha bir o'ringa to'g'ri keladigan qiymatning **50 foizi**, biroq bazaviy hisoblash miqdorining **100 baravaridan** ortiq bo'lmagan miqdorda subsidiya ajratiladi.

Loyiha doirasida xususiy sherik va budjet mablag'lari hisobiga qurilgan talabalar turar joyi binosi **30 yildan** so'ng davlat sherigiga soz holda qaytariladi.

Xususiy sherik 30 yil davomida talabalarga yotoq joy xizmatlarini ko'rsatadi, talabalar turar joyini soz holda saqlash va sifatli xizmat ko'rsatish xususiy sherik xisobidan amalga oshiriladi. Yotoq joy uchun talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov miqdori davlat sherigi bilan kelishilgan holda o'rnatiladi. Loyiha joylashuvi aniq koordinatlari - 41.372020, 69.302868



Mazkur loyiha yuzasidan fikr-mulohazalaringiz mavjud bo‘lgan taqdirda, 2025-yil 8-sentyabrga qadar quyidagi elektron manzillarga yuborishingiz mumkin:

**1. Toshkent arxitektura qurilish universiteti:**

Yunusobod tumani Yangi shahar ko‘cha 9-uy.

Elektron pochta manzili: [e-mail: devon@taqu.edu.uz](mailto:devon@taqu.edu.uz), [exat: t.taqi@exat.uz](mailto:t.taqi@exat.uz)

Telefon raqami: (+998) 55-508 02 95

**2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

100095, Toshkent shahri Talabalar ko‘chasi 7-uy.

Elektron pochta manzili: [devonxona@edu.uz](mailto:devonxona@edu.uz)

Telefon raqami: 55 520-08-08

**Toshkent arxitektura qurilish universiteti hududida davlat-xususiy sheriklik  
asosida talabalar turar joyi binosini loyihalashtirish, qurish, jihozlash,  
foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarishni tashkil etish loyihasi to'g'risida  
MA'LUMOT**

| <b>№</b> | <b>Asosiy ko'rsatkichlar</b>                                                                 | <b>Ma'lumotlar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|----------|----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.       | Loyihaning nomi                                                                              | Toshkent arxitektura qurilish universiteti hududida davlat-xususiy sheriklik asosida 1 440 o'rinli talabalar turar joyi binosini loyihalash, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarishni tashkil etish.                                                                                                                                                                  |
| 2.       | Loyiha taraflarining nomi:<br>Davlat sherigi:<br><br>Xususiy tashabbuskor:                   | Toshkent arxitektura qurilish universiteti<br><br>Elegant Invest MCHJ                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| 3.       | Loyihaning faoliyat yo'nalishi                                                               | Toshkent arxitektura qurilish universiteti talabalari turar joy bilan ta'minlanadi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| 4.       | Loyihaning joylashgan manzili                                                                | Toshkent shahar, Yunusobod tumani 14-mavze, Toshkent arxitektura qurilish universiteti                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| 5.       | Loyihani amalga oshirish muddati                                                             | 2 yil.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| 6.       | Loyihaning amal qilish muddati                                                               | 30 yil.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| 7.       | Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari | Talabalarga turar joyda yashagani uchun oyiga 412,0 ming so'm                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| 8.       | Loyihaning umumiy qiymati                                                                    | 119 783,0 mln so'm                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| 9.       | Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi va turlari                                         | Toshkent arxitektura qurilish universiteti hududidan 0,6 ga yer maydoni vaqtincha foydalanishga beriladi;<br>Vazirlar Mahkamasining 563-sonli qarorining 1(b)-bandiga muvofiq, xususiy sherikka talabalar turar joyini qurish uchun loyiha bo'yicha bitta yotoq o'rnini hisobida talab etiladigan mablag'ning 50 foizi, ya'ni 59,3 mlrd so'm miqdorda Davlat budjetidan subsidiya ajratiladi. |